

## TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA RANGLARNING ILMIY- NAZARIY AHAMIYATINI O'RGANISH

**Qurbanova Barchinoy**

FarDU o'qituvchisi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Yo'ldasheva Gullola**

FarDU o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ranglar haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroficha yoritilgan. Ranglarning inson ruhiyatiga bo'lgan tasiri hamda rang tuslari tasviriy san'atning barcha yo'naliishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Shu qatorda tasviriy san'at mashg'ulotlarida rangni to'g'ri tanlash va ishlatish metodlari ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** spektr ranglar, tus, ranglar doirasi, optima, metod, rang turlanishi, axromatik va xromatik ranglar, ranglar iqlimi, estetik tarbiya.

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье широко и всесторонне освещена теоретическая и методическая информация о цветах. Влияние цветов на психику человека и цвета важны для всех областей изобразительного искусства. Кроме того, показаны приемы правильного подбора и использования цвета на занятиях по изобразительному искусству.*

**Ключевые слова:** цветовой спектр, цвет, цветовая гамма, оптима, метод, цветовая вариация, ахроматические и хроматические цвета, цветовой климат, эстетическое воспитание.

### KIRISH

Respublikamiz kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining roli beqiyosdir. Mamlakatimizda ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur.

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o‘rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy, va ruhiy tomonlari haqida juda ko‘p ma’naviyat xazinalarini qoldirib ketganlar. Afsuski, bu ma’naviy merosdan to‘liq foydalana olmayapmiz. Chunonchi, ta’lim va tarbiyada, tibbiyat, texnika, qishloq xo‘jaligi, iqtisod va boshqa sohalarda bu masalalarga yetarli darajada urg‘u berilmayapti. Holbuki, jahonning rivojlangan mamlakarlarida ranglarning inson hayotidagi o‘rniga juda katta ahamiyat berilmoqda. Ranglar orqali barcha janrlarda ishlash tasviriy san’atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozisiya, yorug‘-soyalarni o‘rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi. Tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish kishilarga estetik zavq bag‘ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Tinglovchilar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go‘zalliklarini chuqur idrok etadilar. Ranglarning kelib chiqishi, ularning ahamiyati insonlar ruhiyatiga katta ta’siri hamda hozirgi kungacha kashf etilmagan rang tuslari borligi insonlarni hayratga solmoqda. Ranglarni tasviriy san’at sohasida muhim o‘ringa ega ekanligini, ularni o‘rganish uchun rangshunoslik fani negizini talabalarga tushuntirish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ranglarning qanday hosil bo‘lish va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg‘onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinci va boshqalar rang tasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar. Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonsov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Isak Nyuton qator tajribalar o‘tkazib, oq yorug‘likning ko‘p rangli ekanligini isbotlagan, ekranda spektr ranglarni hosil qilgan. Ranglar doirasida qizil, qizg‘ish zarg‘aldoq, sariq, sarg‘ish yashil, havo rang, qirmizi ranglarninghar xil tuslari ko‘rinadi. Ranglar doirasida rang tuslari juda ko‘p bo‘lishi mumkin. Lekin ko‘zlarimiz ularning 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Olimlar tomonidan ko‘p yillik tajribada ko‘zimiz juda murakkab va eng takomillashgan optik asbob, asosiy sezgi o‘rganimizdan biridir. Odamlar hayot tajribasining 80-90 foizini ko‘z orqali o‘rganishlarini ruxshunoslar aniqlagan.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlari uchun ranglar muhum ahamiyatga ega. Barcha yo‘nalishlarda axromatik, xromatik, kantras, spektr va boshqa ranglar orqali san’at asarlari yaratiladi. Talabalar darslarda rangni ko‘rish orqali ajratadilar, chizilayotgan naturada rangni ajratish, ularni to‘g‘ri joylashtirish kerak. Rangni o‘z holatidagina emas balki uni ilmiy-nazariy ahamiyatini, xususiyatini o‘rganib undan foydalanish to‘g‘ri va mukkamal ishlash imkonini beradi. Turli metodlar orqali ranglarni

talabalarga tushuntirish va ilmiy jihatdan izohlab berish malakali o'qituvchilar tomonidan izohlab kelinmoqda. Rangshunoslik fanlarida fizika, kimyo, psixologiya, fiziologiya va eststika fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ranglar insonning dunyo qarashini, psixologiyasini, estetikasga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda aytish joizki talabalarda estetik tarbiyani rivojlanishiga katta ahamiyatga ega. Estrtik tarbiya-yangi kishini shakllantirishning eng zarur sharti va muhim vositalaridan, binobarin, mamlakatimizdagi mafkuraviy ishning ma'sulyatlari jabhalaridan biridir. Insonni estetik ruhda tarbiyalash, ularda yuksak badiiy did va madaniy ko'nikmalarni shakllantirish haqida g'amxo'rlik qilish eng muhim vazifalaridandir. Inson kayfiyatiga salbiy hamda ijobiy ta'sir ko'rsatadigon ranglar Markaziy Osiyoda kitob miniatyurasi, naqqoshlik va devorlariga freska pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash, va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarini o'rgangan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytkanda, rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarning tabiatda hosil bo'lish va tarqalishi masalalarini, ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Ranglarda bir dunyo ilm sirlari, ma'naviyat xazinalari yashirinib yotibdi. Bu sirlarni o'rganish, taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda talabalarni turli rang bilan ishlash, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari uchun ko'plab bilimlar kerak bo'ladi. Atrofimizdagi olamni tashkil etgan rang-baranglik, hali ham o'rganilmagan sir-sanoatdan iboratdir. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida ranglardan to'g'ri foydalanish metodi hamda turli qiziqarli o'yinlar orqali olib borish, o'qituvchining qobiliyatiga bog'liqdir.

## REFERENCES

1. S.S.Bulatov "Rangshunoslik", "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashityoti" Toshkent. 2009-yil.
2. M.Nabiiev "Rangshunoslik", "O'qituvchi nashriyoti" Toshkent. 1985-yil.
3. U.Nurtayev "Rangshunoslik asoslari", "Ilm ziyo nashriyoti" Toshkent. 2008-yil.
4. [WWW.ziyo net.uz](http://WWW.ziyo.net.uz)
5. [WWW.o'qituvchi net.uz](http://WWW.o'qituvchi.net.uz)
6. Yuldashev, I. (2022). BORLIQNI IDROK ETISH VA TASVIRLASHGA DOIR DASTLABKI MA'LUMOTLAR HAMDA ULARNI XARAKTERLI JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 9-15.

7. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
8. Мадаминов, Н. М. (2022). МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ПЛАТФОРМАЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 115-119.
9. Мадаминов, Н. М. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИДАН КЕНГ ФОЙДАЛАНИШ ЕЧИМЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 46-50.
10. Ахмедова, Н. Э. (2022). МЎҶАЗ САНЪАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
11. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO 'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.
12. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.
13. Mirzahamdamovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of Innovative Educational Technologies in Fine ARTS Classes of Higher Education Institutions. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(4), 25-27.
14. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND SKILLS OF FUTURE TEACHERS. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 8894-8903.
15. Yunusaliyev, М. Т. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.
16. Sohibov, R. (2022). KOMPOZITSIYANING NAZARIY ASOSLARI. KOMPOZITSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 256-259.

17. Sohibov, R. (2022). RANGLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 234-238.
18. Ma'Murov, A. A. (2022). TARBIYA JARAYONIDA AMALIY SAN'ATDAGI USTOZ VA SHOGIRD ODOBI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 138-142
19. A'Zamjonov, A., & Ibrohimov, A. (2022). O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATI MEROSSI AN'ANALARINI ILMIY PEDAGOGIK JIHATLARINI O'RGANISHNING AMALIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 151-156
20. O'Rinov, M. X. O. G. (2022). CHIZMACHILIK FANI DARSLARIDA UYG'UNLASHGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 167-173.
21. Yunusaliyev, M. T. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.
22. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
23. Qurbonova, B. M. (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 65-70.
24. Qurbonova, B. M. (2022). ME'MORIY OBIDALARNING BADIY, ESTETIK QIYMATIDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 106-109.
25. Qurbonova, B. M. (2022). DUNYO MADANIY TARAQQIYOTIDA SHARQ KITOBATCHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS HAMDA BEQIYOS O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 239-242.